

O'ZBEKISTON AHOLISINING HUDUDIY JOYLASHUVI, SHAHAR VA QISHLOQ AHOLISI

Xodjaniyazova Shoxsanam Ergash qizi

Xo'janiyozova Nilufar Ergash qizi

Abdullayeva Marjona Sadirdin qizi

Buxoro davlat pedagogika institute Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi aholisining o'sishi, tabiiy harakati, tug'ilish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillar, aholi migratsiyasi, aholi soni, urbanizatsiya jarayonlari hamda aholi manzilgohlari tahlil etilib, viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda demografik jarayonlarning ta'siri tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *aholi soni, aholining tabiiy o'sishi, tug'ilishi, o'lim, aholi tarkibi, demografik siyosat, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, mehnat resurslari, migratsiya, aholi manzilgohlari, urbanizatsiya darajasi.*

Abstract. *In this article, the population of the Republic of Uzbekistan growth, natural movement, birth rate and factors affecting it, population migration, population, urbanization processes and population settlements analyzed, the current and prospective socio-economic development of the regions the influence of demographic processes in determining measures was studied.*

Key words: *population, natural population growth, birth, death, population composition, demographic policy, economic and social processes, labor resources, migration, population settlements, level of urbanization.*

KIRISH

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida: Jamoatchiligimiz va xalqimiz bilan keng muhokamalarda bildirilgan takliflar asosida ishlab chiqilgan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o'rinlarda — Davlat dasturi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Davlat dasturi ijrosini samarali, qat'iy tartib-intizom asosida tashkil etib, 10 kun muddatda har bir tuman, shahar va mahalla kesimida amaliy chora-tadbirlarni belgilasin hamda keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida muntazam ravishda mas'ul shaxslarning hisobotini eshitib borsin deya

Oliy Majlis palatalari va mahalliy Kengashlarga Davlat dasturining bajarilishini tumanlar, shaharlar va mahallalarga borib o'rganish, mas'ul davlat organlari rahbarlarining hisobotlarini eshitib borish tavsiya etilsin deya ta'yinlandi

O'zbekiston (rasman: O'zbekiston Respublikasi, Ўзбекистон Республикаси) — Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan mamlakat. Poytaxti — Toshkent shahri. Davlat tili — o'zbek tili. Maydoni — 448 978 km² Hozirda mamlakatning umumiy aholisi soni 37 milliondan ortiq. Pul birligi — so'm. O'zbekiston Respublikasi hududi 12 ta viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasidan iboratdir, shuningdek, u mustaqil, demokratik, dunyoviy va konstitutsiyaviy davlat hisoblanadi. Ammo, nodavlat tashkilotlar O'zbekistonni “fuqarolik huquqlari cheklangan avtoritar davlat” deb ta'riflaganlar O'zbekiston MDH, BMT, YXHT va SHHT a'zosi. O'zbekiston berk hududda ya'ni qirg'oqqa ega bo'lmagan besh mamlakat bilan, ya'ni: shimoldan Qozog'iston; shimoli-sharqdan Qirg'iziston; janubi-sharqdan Tojikiston; janubdan Afg'oniston; va janubi-g'arbiy qismida Turkmaniston bilan chegaradosh. O'zbekiston iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tadi, tashqi savdo siyosati import o'rnini bosishga asoslangan. 2017-yil sentabridan boshlab mamlakat valyutasi bozor kursi bo'yicha to'liq konvertatsiya qilinmoqda. O'zbekiston paxta tolasini ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi yirik ta'minotchi davlatdir. Mamlakatda, shuningdek, dunyodagi eng yirik oltin konlari mavjud. Sovet davridagi ulkan energiya ishlab chiqarish qurilmalari va tabiiy gazni yetkazib berish bilan O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng yirik elektr ishlab chiqaruvchisi bo'ldi.

Shahar aholisi - shahar va shaharchalarda yashaydigan kishilar. Shahar va qishloq aholisi nisbati urbanizatsiya darajasini ko'rsatgan. Uning asosiy ko'rsatkichi mamlakat yoki mintaqa aholisining necha foizi shaharlarda yashashini ifodalaydi. Biroq aholi manzilgohlarini qishloq yoki shaharlarga ajratish mezoni barcha mamlakatlarda turlicha bo'lgan. Yer yuzi aholisining deyarli yarmi shaharlarda istiqomat qilgan. Shahar aholisining o'sib borishiga — qishloqlarga shahar maqomining berilishi, shaharlar hududining qo'shni qishloq joylari hisobida ortib borishi va qishloqlardan shaharlarga aholining ko'chib kelishi (migratsiyasi) hamda Shahar aholisining tabiiy ko'payishi sabab bo'lgan. So'nggi yillarda O'zbekistonda Shahar aholisining o'sish sur'ati pasayib ketgan. Qishloq aholisining shaharliklarga nisbatan ko'payishi yuqoriligi natijasida Shahar aholisi ulushi pasayib ketishi tobora ortib borgan O'zbekistonda Shahar aholisining sekin o'sishiga tashki migratsiya va aholi tabiiy o'sishining pasayishi (asosan, tug'ilishi) sabab bo'lgan. Qishloq aholisi - mamlakat jami aholisining viloyat va tumanlardagi qishloq-ovullarda yashaydigan qismi. Qishloq aholisining aksari qismi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik yoki qishloq xo'jaligining boshqa turlari bilan mashg'ul bo'ladi. mamlakat iqtisodiy rivojlangan sari sanoatda ishlovchilar salmog'i ortib, butun aholi tarkibida Qishloq aholisi salmog'i kamayib boradi (qarang Shahar aholisi). 19-asr boshlarida qishloqlarda jahon aholisining 95—97%, 20-asr boshlarida qariyb 85% yashagan bo'lsa, 1970-yilda 65% dan kamrog'i istiqomat qildi. Ayniqsa, rivojlangan

mamlakatlarda Qishloq aholisi salmog'i ancha past. Mas, Buyuk Britaniyada 11%, Germaniyada 12%, AQShda 21% ga yaqin. Ba'zi mamlakatlarda shaharlarning ekologik sharoiti og'irlashib borishi va transportning rivojlanishi natijasida aholi shaharlardan qishloqlarga ko'chib o'tishi jarayoni kuzatiladi. Davlat statistika qo'mitasi O'zbekistonning shahar va qishloqlarida aholi soni bo'yicha ma'lumotlarni e'lon qildi. Unga ko'ra, 2022-yilning 1-iyul holatiga O'zbekistonda yashovchi doimiy aholi soni 35 603,4 ming kishini tashkil etgan. Ularning 17 913 ming nafari erkaklar, 17690,4 ming nafari ayollar bo'lgan. Shundan shahar aholisi soni 18 117 ming kishiga teng bo'lgan. Ularning 9076,9 ming nafari erkaklar, 9040,1 ming nafari ayollar. Qishloqlarda esa 17486,4 ming kishi istiqomat qilgan. Ularning 8836,1 ming nafarini erkaklar, 8650,3 ming nafarini ayollar tashkil etgan. Qo'mita ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda 2022-yilda shaharda yashovchilar qishloqda yashovchilar sonidan oshdi. 1991-yilda respublika aholisining 40,3 foizi shahar joylarda istiqomat qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 50,9 foizga yetgan.

Xulosa. Kuzatilayotgan davrda respublikada aholining tabiiy ko'payish darajasi ta'sir etuvchi omillar natijasida o'zgarib borgan. Tabiiy ko'payish 1991 yilda eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan va qariyb 600 ming kishini tashkil qilgan. Yuqoridagi holat respublikaning shahar va qishloqlariga ham taalluqli bo'lgan va keyingi yillarda asta-sekin pasayib borgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Буриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. -Тошкент: Университет, 1997. -Б.132.
2. Естественное движение населения Республики Узбекистан. Статистический сборник. Госкомстат Узбекистана. -Ташкент, 2006.
3. Розимова Ё. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари (Хоразм вилояти ва Қорақалпоғистон Республикаси мисолида. 1991-2007 йй). Тарих. фан. ном. дисс автореф. -Тошкент, 2010.
4. Ўзбекистонда ижтимоий ривожланиш ва турмуш даражаси. - Тошкент, 2017. Ўзбекистон ҳудудларининг йиллик статистик тўплами. - Тошкент, 2017.
5. Ўзбекистон демографик йиллик тўплами. - Тошкент, 2022
6. Численность населения Узбекистана. Статистический сборник. - Ташкент, 2007.